

BANK KAFOLATINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI VA ROLI

Safarova Zulfiya Shuhrat qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

zulfiyasafarova58@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bank kafolati tushunchasi, majburiyatlarni ta’minlashning usuli sifatida o‘ziga xos xususiyatlari hamda uning tadbirkorlik faoliyatidagi ahamiyati va roli o‘rganilgan.

Kalit so‘zi: Tadbirkorlik faoliyati, moliyaviy risk, bank kafolati, barqaror daromad

Annotation: The concept of a bank guarantee, its features as a method of assuring liabilities, its role and significance in entrepreneurial activity were studied in this article.

Keywords: : Business activity, financial risk, bank guarantee, stable income

Аннотация: В данной статье изучается понятие банковской гарантии, ее особенности как способа обеспечения обязательств, а также ее значение и роль в хозяйственной деятельности.

Ключевое слово: Деловая активность, финансовый риск, банковская гарантия, стабильный доход

Iqtisodiy jihatdan dunyoning etakchi davlatlari qatoriga chiqib olish vazifasini belgilagan respublikamiz taraqqiyotida va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bank va bank tizimining ahamiyati yuqoridir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida “Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish uchun avvalambor, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xizmat qiladigan tarmoqlar, jumladan, tijorat banklari tarmog‘i faoliyatini rivojlantirmay turib, ma’rifatli bozor sari aniq qadam tashlash to‘g‘risida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas” deb ta’kidlab o‘tganlar.

Tijorat banklari pul malag‘larini saqlash, ularni daromad keltiradigan operatsiyalarga yo‘naltirish vazifalarini bajaradi va mijozlarga turli moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda bank yuqori foyda olishni ko‘zlagan holda o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Ko‘pchilikning tasavvurida bankning iqtisodiyotda tutgan o‘rni faqatgina omonatlarga mablag‘larni jalb qilish va kreditlar berishdan iboratdir. Lekin zamonaviy banklar o‘zlarining raqobatbardoshligini saqlash va jamiyatning talablarini qondirish maqsadida o‘z oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bank kafolati ana shunday vazifalardan biri hisoblanadi.

Bank kafolati nafaqat bank faoliyatida, balki tadbirkorlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bilamizki, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotimizdagi ulushi tobora ortib, jamiyat ravnaqi, aholi farovonligini yuksaltirishdagi o'rni mustahkamlanmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport-import operatsiyalari to'liq va o'z vaqtida samarali amalga oshirilishini ta'minlashning muhim jihatlaridan biri bu shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarning lozim darajada ta'minlanishidir.

Bugungi kunda majburiyat taraflaridan biri hisoblangan tadbirkorlik subyekti uchun majburiyatlarni ta'minlash usuli sifatida kafolat, ya'ni bank kafolati muhim o'rin tutmoqda.

Bank kafolati — bank (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning buyurtmasiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga beradigan yozma majburiyat.

Tadbirkorlik faoliyati tavakkalchilikka asoslangan bo'lib, o'z faoliyatida foyda ko'rish maqsadida novatorlikka qaratilgan iqtisodiy rejalarni amalga oshiradi. O'z navbatida, tadbirkor tomonidan muayyan iqtisodiy rejalarni amalga oshirish uning moliyaviy holati barqarorligini taqozo etadi. Albatta, har doim tadbirkor o'z iqtisodiy rejalarni amalga oshirish jarayoni oldidan moliyaviy barqarorlikka ega bo'lmasligi mumkin. Ushbu holatda bank kafolati tadbirkor iqtisodiy faoliyatini boshlab olishiga ko'maklashadi. Ya'ni uning kreditori oldidagi majburiyatini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan bank kafolati orqali tadbirkor iqtisodiy faoliyatini amalga oshiradi. O'z vaqtida berilgan mazkur iqtisodiy yordam tadbirkor riskining kafolati hamda kutilyotgan daromadning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bu boradagi amaliyotga qaraydigan bo'lsak, xaridorlarning kamchiliklari tufayli bank kafolatiga ehtiyoj ortib bormoqda. Avval sotuvchilar to'lov qabul qilmasdan turib, noma'lum xaridorlarga tovarlar sotishmagan. Ularda ishonchsizlik hissi bo'lgan. Bank kafolati asosida kafilning qarzdor majburiyatini o'z zimmasiga olishi bu muommoni hal etgan va sotuvchilarga ishonch bag'ishlagan. Sotuvchilar bank kafolatini olgandan so'ng tovarlarni yetkazib berishga tayyor bo'la boshlagan. Bu moliyaviy tavakkalchilikni kamaytirgan.

Bank kafolatining ahamiyati uning quyidagi xususiyatlari bilan yanada mustahkamlanadi: benefetsiarning moliyaviy tavakkalchiligidan ko'rishi mumkin bo'lgan zararini oldini olish, prinsipal imkoniyatlarining ortishi, bankning foyda ko'rishi, oldindan to'lovni talab etmasligi, muvofiqlikning yuqoriligi va hakoza.

O‘z navbatida, uning kamchiliklarini ham qayd etib o‘tish lozim. Bularga bankning moliyaviy holatiga ta’siri, benefitsiar tavakkalchiligi va garovga qo‘yish kabilar kiradi.

Bank kafolati nafaqat tadbirkorlik faoliyatida, balki kreditor va bank faoliyatida ham muhim o‘rin egallaydi. Ta’kidlash joizki, bank kafolati bilan bog‘liq munosabat ishtirokchilarining har biri kafolat munosabatiga kirishish orqali mulkiy manfaatga ega bo‘ladi.

Bank kafolatining banklar va boshqa kredit tashkilotlari faoliyatidagi o‘rniga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular uchun bank kafolati kasbiy faoliyat va doimiy daromad manbai hisoblanadi. Banklar uchun kredit berishda yuzaga keladigan xavf va mulkiy manfaatlar bilan bank kafolati berishda kafolatchining xavf darajasini va mulkiy manfaatlarni solishtirish bank kafolati ko‘proq ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Uning mulkiy manfaati kafolatlar berish uchun haq olishda namoyon bo‘lib, xavfni regress tartibida murojaat qilish orqali qisqartirish yanada kengroq imkoniyat beradi.

Benefitsiar faoliyatida ham bank kafolatining o‘rni yuqori. Sababi u ham tadbirkor hisoblanib, bank kafolati sababli uning tovar oldi-sotdisi bilan bog‘liq faoliyati tavakkalchilikdan uzoqda bo‘ladi. Kafil o‘z zimmasiga olgan majburiyat tufayli uning zarar ko‘rishi ehtimoli ham kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-qism.
2. –T.: TDYUI, 2010.- B.451.
3. Xodjiyev E. O‘zbekiston Respublikasi bank huquqi. –T.: 2021 - B.272.
4. Novoselova L.A. Poruchitelstvo i bankovskaya garantiya. V kn.: Pravovoye regulirovaniye bankovskoy deyatelnosti/ Pod red. prof.
5. Ye.A. Suxanova. M.: YurInfoR
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2012-yil 24-martdagi 10/1-sonli qaroriga ilova bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to‘g‘risida” gi nizom. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020-y., 20-son, 223-modda.
7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqidan. “Xalq so‘zi” gazetasi.